



GRAMMATIK SHAKLLAR NUTQ USLUBLARI BO'YICHA SARALANGAN LINGVISTIK TA'MINOT VOSITASINI TUZISH MASALALARI.

Qodirova Madinabonu Murodjon qizi
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi grammatik shakllarning nutq uslublari bo'yicha tasniflanishi va lingvistik ta'minot vositasi sifatida tuzilishi muammolari tahlil qilinadi. Grammatik birliklar, ayniqsa yordamchi so'zlar, uslubiy bo'yoqqa ega bo'lib, ularning sinonimik qatorlari matn uslubiga qarab farqlanadi. Shuning uchun ham ushbu shakllarni nutq uslublarga ko'ra ajratish va ularning lingvistik bazasini yaratish mashina tarjimasida, avtomatik matn tuzish, matn tahlili va boshqa kompyuter lingvistikasiga oid sohalar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari yordamida o'zbek tilidagi yordamchi so'zlarning sinonimik munosabatlari va uslubiy tafovutlarini hisobga olgan holda mukammal lingvistik baza shakllantirish mumkin.

Kalit so'zlar: lingvistik ta'minot, grammatik shakl, grammatik ma'no, funksional ma'no, badiiy uslub, ilmiy uslub, so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, publitsistik uslub

Аннотация. В данной статье проводится классификация грамматических форм узбекского языка по стилям речи и анализируются проблемы средств лингвистического обеспечения. Грамматически специальные слова имеют стилистическую окраску, а строки синонимов файлов различаются в зависимости от стиля текста. По этой причине эти формы эффективны для обеспечения безопасности стиля речи и лингвистического базового машинного перевода документов, автоматической структуры текста, анализа текста и других областей, связанных с компьютерным языком. С помощью программы можно наблюдать синонимические отношения и стилистические различия вспомогательных слов узбекского языка в совершенной лингвистической базе данных.

Ключевые слова: языковое обеспечение, грамматическая форма, грамматическое значение, функциональное значение, художественный стиль, научный стиль, разговорный стиль, официальный стиль, публицистический стиль.

Abstract. This article presents the classification of grammatical forms in the Uzbek language by speech styles and the analysis of the problems of linguistic support tools. Grammatical features, special requirements have a stylistic coloring, and the file synonym lines differ depending on the style of the text. For this reason, the security and documentation of these forms by speech styles are successful for machine translation, automatic text structure, text analysis and other areas of computer linguistics. With the help of the program, it is possible to

observe the synonymous relationships and stylistic differences of auxiliary words in the Uzbek language in a personal, perfect linguistic database.

Keywords: linguistic support, grammatical form, grammatical meaning, functional meaning, artistic style, scientific style, colloquial style, official style, journalistic style.

Tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri grammatik shakllarning nutq uslublari bo‘yicha tasniflanishi va ularning lingvistik ta‘minot vositasi sifatida tuzilishidir. Leksik birliklarda bo‘lgani kabi, grammatik shakllar ham semantik va funksional jihatdan turli nutq uslublari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, yordamchi so‘zlar va grammatik birliklarning sinonimik qatordagi farqlanishi, ularning uslubiy bo‘yoqlari bilan bog‘liq holda aniqlanishi muhim ilmiy va amaliy masala sanaladi.

O‘zbek tilida yordamchi so‘zlarning umumiy miqdori 230 ga yaqin bo‘lib, ular 100 dan ortiq sinonimik qatorlarga birlashadi. Ammo har bir so‘z o‘ziga xos individual ma‘noga ega bo‘lib, ma‘lum grammatik ma‘noni ifodalasa-da, uslubiy qo‘llanilish jihatidan bir-biridan farqlanadi. Masalan, "va" bog‘lovchisi uslubiy jihatdan neytral bo‘lsa, "hamda" bog‘lovchisi badiiy uslubga, "bilan" bog‘lovchisi esa so‘zlashuv uslubiga yaqin turadi. Shuningdek, "shuning uchun" uslubiy neytral so‘z sanalsa, "shu boisdan" so‘zi badiiy uslubga xosdir.

Mazkur tadqiqot grammatik shakllarning uslubiy xususiyatlarini tizimli ravishda o‘rganish, ularni lingvistik baza sifatida shakllantirish va mashina tarjimasini hamda boshqa kompyuter lingvistikasiga oid sohalarida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslik va sun‘iy intellekt texnologiyalarida keng qo‘llanilishi mumkin.

Leksik birliklarda bo‘lgani kabi grammatik shakllar ham funksional lingvistik bo‘yoqdan holi emas. Morfologik birliklar sinonimik qatoridagi so‘zlar bir umumiy ma‘noni bildirsa-da, ma‘lum ma‘no nozikliklariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Buni lingvistik bazada berish muhimdir. Sababi, mashina tarjimasini uchun berilgan matn tabiiyki, qaysidir nutq uslubiga xoslangan bo‘ladi. Mukammal tarjimaga ega bo‘lish uchun sinonimlarni nutq uslublari ko‘ra ajratib beruvchi lingvistik ta‘minot vositasiga ehtiyoj seziladi. Shuningdek, ushbu lingvistik bazadan avtomatik matn tuzish, matnga avtomatik ishlov berish, avtomatik tahrirlash kabi kompyuter lingvistikasining ko‘plab sohalarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot davomida o‘zbek tilidagi yordamchi so‘z turkumlarining umumiy miqdori 230 ga yaqin ekanligi, ular 100 dan ortiq sinonimlik qatoriga birikadi. Biroq har bir so‘z o‘z induvidualligini namoyon qiladi, ya‘ni mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir umumiy grammatik ma‘noni ifodalashi, biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llash imkoniyati mavjud bo‘lsa ham, qo‘llanilish uslubiga ko‘ra bir biridan farqlanadi.

Ya‘ni va -ki(m) shakllari aniqlov ma‘nosini bildiradi, biroq -ki(m) shakli ya‘niga nisbatan badiiy bo‘yoqdorlikka ega.

Deb, atab, uchun, ko‘makchilari atalganlik ma‘nosini bildiradi. Shulardan deb so‘zi so‘zlashuv uslubiga xos, uchun – ilmiy va rasmiy uslubda ko‘p qo‘llanadi, atab esa badiiy uslubga yaqin turadi.

O‘zi birikib kelgan birlikni ayirib, chegaralab ko‘rsatish ma’nosini ifodalovchi faqat, atigi, xolos, -gina, bor-yo‘g‘i, yolg‘iz so‘zlaridan faqat, xolos – uslubiy betaraf, bor-yo‘g‘i – so‘zlashuv uslubiga, -gina, yolg‘iz so‘zlari badiiy uslubga xos.

Birgalik, hamkorlik ma’nosini bildirgan va, ham, hamda, bilan, -u, -yu, -da yuklamalaridan va – uslubiy betaraf, bilan – so‘zlashuv; ham, hamda – badiiy uslubga xoslangan. –u, -yu, -da so‘zlashuv va badiiy uslublarida ko‘proq qo‘llanadi.

Qadar, dovur, -gacha sinonimlaridan –gacha uslubiy jihatdan neytral, qadar badiiy va publitsistik uslubga, dovur so‘zlashuv uslubiga xoslangan.

Fikr mavzusi ma’nosini bildirgan yordamchi so‘zlar: haqida, to‘g‘risida, ustida, borasida, xususida, mavzusida, xususida, yuzasidan. Ulardan haqida so‘zi uslubiy jihatdan betaraf, ustida ko‘makchisi so‘zlashuv; borasida, xususida so‘zlari publitsistik; mavzusida, yuzasidan so‘zlari ilmiy uslubda faol qo‘llanadi.

Ish-harakatning galma-gal amalga oshishini bildirgan ba‘zan...ba‘zan bog‘lovchisi barcha uslublarda faol qo‘llanadi. Goh...goh, dam...dam, goho...goho bog‘lovchilari badiiy va qisman publitsistik uslubda, bir...bir esa so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi.

Ish-harakatning ma’lum o‘rin bo‘ylab sodir bo‘lishini bildirgan yordamchi so‘zlardan bo‘ylab so‘zi uslubiy jihatdan neytral, uzra, osha ko‘makchilari kitobiy uslubga xos. So‘zlashuv uslubida ustidan so‘zi ishlatiladi.

Holda, tarzda, yo‘sinda sinonimik qatoridan holda – uslubiy betaraf, tarzda – ilmiy va publitsistik, yo‘sinda so‘zi esa badiiy uslubga xoslangan.

Ikki ish-harakatdan faqat bittasi amalga oshishini bildirgan yo, yoki, yoinki, yoxud sinonim so‘zlaridan yoki uslubiy bo‘yoqdorlikdan holi, yoinki, yoxud – badiiy va publitsistik uslubda, yo – so‘zlashuv uslubida faol qo‘llanadi.

Kuchaytiruv-ta’kid ma’nosini bildirgan ham, hatto, axir, -(y)oq, nahotki yuklamalari rasmiy va ilmiy uslubda qo‘llanishi cheklangan. Badiiy va so‘zlashuv uslubida faol, publitsistik uslubda qisman qo‘llanadi.

Uchun, deb, deya, toki so‘zlari maqsad ma’nosini ifodalaydi. Ulardan uchun so‘zi barcha uslublarda faol, deb – so‘zlashuv, deya – publitsistik, toki – badiiy va publitsistik uslublarda qo‘llanadi.

Moslik, muvofiqlik ma’nosini bildiruvchi grammatik shakllar qatoridan ko‘ra – so‘zlashuv, rasmiy va ilmiy; asosan – rasmiy va ilmiy; muvofiq, binoan badiiy va publitsistik uslubda faol qo‘llanadi.

Mustasnolik ma’nosini bildiruvchi grammatik shakllar: o‘zga, boshqa, bo‘lak, tashqari sinonimik qatoridan boshqa so‘zi uslubiy betaraf; bo‘lak, tashqari – so‘zlashuv uslubiga, o‘zga so‘zi badiiy va publitsistik uslubga xoslangan.

Go‘yo, go‘yoki, bamisli, misoli, misli, xuddi, naq sinonimik qatoridagi xuddi so‘zi uslubiy jihatdan betaraf, qolgan so‘zlar, asosan, badiiy, qisman publitsistik uslubga xoslangan.

O‘zbek tilida qiyoslash, taqqoslash ma’nosida ham bir qancha yordamchi so‘zlar ishlatiladi. Jumladan, ko‘ra, qaraganda ko‘makchilari o‘zaro sinonim bo‘lib, ko‘ra – kitobiy

uslubga xos bo‘lsa, qaraganda ko‘pincha og‘zaki uslubda qo‘llanadi. Xuddi shunday grammatik ma‘noni ifodalagan bo‘lsa, esa sinonim so‘zlaridan esa – kitobiy, bo‘lsa – og‘zaki uslubga xosdir. Holbuki, vaholanki so‘zlari ham o‘zaro qiyoslash, solishtirish ma‘nolarini ifodalaydi va har ikkisi badiiy va publitsistik uslubga xos.

Shart ma‘nosini ifodalovchi agar, garchi, gar, agarda, basharti, mabodo sinonimlik qatoridagi agar so‘zi uslubiy jihatdan neytraldir. Agarda – so‘zlashuv uslubiga xos. Mabodo - shart ma‘nosi bilan birga gumon, taxminni ham ifodalaydi. Basharti – badiiy uslubga xoslangan.

So‘roq yuklamalaridan –mi shakli barcha nutq uslublari uchun umumiy sanaladi. –chi, -a, -ya yuklamalari, asosan, so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi.

O‘zbek tili grammatik birliklari orasida sabab ma‘nosini ifodalovchilar ko‘p sonni tashkil qiladi. Zero, ular gapda tutgan o‘rni, bog‘lash usuliga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Shu sababli ularni alohida sinonimik qatorlarga birlashtirish talab etiladi. Shuning uchun, shu sababli, shu boisdan sinonimlik qatorida shuning uchun uslubiy jihatdan betaraf, shu sababli ilmiy va publitsistik uslubga xos, shu boisdan esa badiiy uslubga xoslangan.

Bilan, sababli, uchun ko‘makchilari biror voqea munosabatini ifodalaganda o‘zaro sinonim bo‘ladi. Masalan, Bayram bilan tabrikladi. // Bayram sababli tabrikladi // Bayram uchun tabrikladi. Shundan, uchun – uslubiy betaraf, sababli ko‘makchisi kitobiy uslubga, bilan – so‘zlashuv uslubiga xos.

Sabab ma‘nosini ifodalagan yana bir sinonimik qator: sababli, tufayli, ketidan, orqasidan, -dan keyin shakllari ma‘lum ish-harakat yakunlanishi boshqa ish-harakat boshlanishiga sabab bo‘lishini bildiradi. Misol uchun,

Paxta ishi sababli ko‘p dehqonlar qiya bo‘lib ketdi.

Paxta ishi tufayli ko‘p dehqonlar qiya bo‘lib ketdi.

Paxta ishi ketidan ko‘p dehqonlar qiya bo‘lib ketdi.

Paxta ishi orqasidan ko‘p dehqonlar qiya bo‘lib ketdi.

Paxta ishidan keyin ko‘p dehqonlar qiya bo‘lib ketdi.

Shulardan ketidan, orqasidan, -dan keyin shakllari so‘zlashuv uslubiga xoslangan bo‘lsa, sababli, tufayli so‘zlari kitobiy uslubga oiddir.

Sabab ma‘nosini ifodalagan yana bir yordamchi so‘zlar guruhi, asosan, qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasida sababni bildirib keladi. Shuning uchun alohida sinonimlik qatorini tashkil etadi. Bular: chunki, negaki, nimagaki so‘zlari. Ulardan chunki – uslubiy jihatdan xoslanmagan, negaki – badiiy uslubga, nimagaki – so‘zlashuv uslubiga xos.

To‘siqsizlik ma‘nosini ifodalovchi qaramay, ham, -da, -qaramasdan, garchi, garchand so‘zlaridan iborat sinonimlar qatoridan ham(-yam) shakli uslubiy jihatdan neytral bo‘lib, uning –yam shakli ko‘pincha so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi. Garchi, garchand so‘zlari badiiy uslubga xoslangan bo‘lsa, qaramay, qaramasdan so‘zlari ilmiy uslubga xos.

Oid, doir, bo‘yicha so‘zlaridan iborat xoslik ma‘nosini ifodalovchi sinonimik qatordagi bo‘yicha so‘zi uslubiy betaraf so‘z bo‘lib, barcha nutq uslublari faol qo‘llana oladi. Oid, doir so‘zlari esa kitobiy uslubga xoslangan.

Sari, tomon, qarab, bo‘ylab – yo‘nalish ma’nosini bildiruvchi so‘zlardan tomon so‘zi barcha uslublarda qo‘llana oladi. Sari so‘zi badiiy va publitsistik uslubga xoslangan bo‘lsa, qarab, bo‘ylab so‘zlari so‘zlashuv uslubiga oid.

O‘zbek tilida zidlik ma’nosi ammo, lekin, biroq, balki, aksincha, vaholanki, holbuki, ammorekin, valekin, lek, -u, -yu, -da shakllari orqali hosil qilinadi. Boshqa shakllarda bo‘lgani kabi ular ham uslaublarda qo‘llanishiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Lekin so‘zi sinonimlar orasidagi dominanta so‘z bo‘lib, uslublarda cheklanmaydi. Ammo, biroq so‘zlari kitobiy uslublarning barchasida qo‘llanadi. Valekin, lek – badiiy uslubga, ammorekin – so‘zlashuv uslubiga xoslangan. –u, -yu, -da yuklamalaridan -u, -yu shakllari barcha uslubda qo‘llana olsa, -da yuklamasi kitobiy uslubga xoslangan.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi grammatik shakllar va yordamchi so‘zlar nafaqat umumiy ma’no jihatidan, balki uslubiy bo‘yoqlari bilan ham bir-biridan farqlanadi. Nutq uslublariga ko‘ra ularning tasniflanishi mashina tarjimasi, avtomatik matn yaratish va matn tahlili kabi sohalarda muhim ahamiyatga ega. O‘zbek tilida yordamchi so‘zlarning 100 dan ortiq sinonimik qatorlarga ajratilishi va ularning har bir uslub doirasida farqlanishi til tizimining boyligi va murakkabligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida grammatik birliklarning uslubiy tasnifi asosida lingvistik ta’minot vositasini yaratish istiqbollari belgilandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sinonimik shakllarning uslubiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan lingvistik baza mashina tarjimasining sifatini oshirishga, avtomatik matn tahlili va boshqa kompyuter lingvistikasi vositalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu tadqiqot doirasida yordamchi so‘zlarning uslubiy xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish, ularning kontekstual qo‘llanilish imkoniyatlarini tahlil qilish va sun’iy intellekt texnologiyalariga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa, o‘zbek tili uchun mukammal lingvistik baza yaratish nafaqat tilshunoslik, balki axborot texnologiyalari sohasida ham muhim ilmiy va amaliy natijalarga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ahmadaliyev, A. *O‘zbek tilining funksional uslublari va ularning lingvistik xususiyatlari*. - Toshkent: Fan, 2010, 75-77.
2. Qodirov, N. *O‘zbek tilida sinonim birliklarning uslubiy tahlili*. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 2018, 48-49.
3. Xudoyberganova, G. *Grammatik shakllarning funksional uslubiy xususiyatlari*. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2016, 55-67.
4. Normurodov, O. *O‘zbek tilida yordamchi so‘zlarning tasnifi va uslubiy bo‘yoqlari*. Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2020, b.86.
5. Karimov, Sh. (2021). *Mashina tarjimasi uchun lingvistik bazalar yaratish va ularning tilshunoslikdagi ahamiyati*. Toshkent: Globe, 2021, b.153.
6. Zohidov, H. (2017). *O‘zbek tilida grammatik vositalarning funksional xususiyatlari va ularning uslubiy bo‘yoqlari*. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2017, 114-118.